DIFFERENTIAL APPROACH TO FORMING SWIMMING ABILITIES AND SKILLS IN FEMALE STUDENTS .....	411-415
<i>Komilova Dildora Gulamjanovna</i>	
DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ECONOMICS STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING .....	416-420
<i>Turdimurodov Dilmurod Yuldashevich</i>	
ADAPTIVE REACTIONS OF ATHLETES TO TECHNICAL ACTIONS IN BOXING .....	421-426
<i>Abdullayev Dilshod Xamidullo o'g'li</i>	
CONDITIONS AND METHODS OF TEACHING ACTIVITY GAMES TO CHILDREN .....	427-432
<i>Akhmedov Akmal</i>	
IMPORTANT CRITERIA FOR PREPARING FUTURE PSYCHOLOGISTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION .....	433-440
<i>Donisheva Gulro'y Axrorqul qizi</i>	
USE OF IT IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE .....	441-444
<i>Qurbanboyeva Dilfuz Shukur qizi</i>	
FORMING COMMUNICATION COMPETENCES OF STUDENTS .....	445-449
<i>Erkaboev Oybek Mukhammadzhonovich</i>	
THE GROWTH RATE OF INDICATORS OF SPECIFIC COORDINATION ABILITIES OF CHILDREN AGED 6 YEARS .....	450-456
<i>Abatov Jalgasbay Orinbaevich</i>	
TEACHING FINE ART LESSONS IN CONNECTION WITH HISTORY .....	457-463
<i>Akramjonova Feruza Akramjonovna</i>	
INFLUENCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT ON THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION .....	464-468
<i>Makhmudova Zulfiya Khomitovna</i>	
ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION AND FAMILY COOPERATION .....	469-476
<i>Abduvasieva Mahmuda Khamidullo qizi</i>	
UNIQUE ASPECTS OF THE CHINESE EDUCATION SYSTEM .....	477-483
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i>	
PEDAGOGICAL PROBLEMS IN THE FORMATION OF MENTAL ABILITIES IN PRIMARY CLASS STUDENTS AND THEIR SOLUTION .....	484-489
<i>Esanova Gulchehra</i>	
PRINCIPLES AND METHODS OF PHYSICAL TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS .....	490-497

**Received:** 22 April 2024

**Accepted:** 1 May 2024

**Published:** 10 May 2024

*Article / Original Paper*

## **IMPROVING PROFESSIONAL PREPARATION OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE HERMENEUTIC APPROACH**

**Eshnazarov Murad Karimovich**

Theory of Pedagogy, Termiz State University. 1st year doctoral student majoring in history of pedagogical teachings

**Abstract.** In this article, the definition and essence of the concept of hermeneutics, the importance of the hermeneutic approach in preparing future teachers for professional activities, the understanding of the text and its interpretation, the role and importance of hermeneutics in education and training, the manifestation of hermeneutics in the process of pedagogical activity. Specific aspects are discussed.

**Key words:** profession, hermeneutics, understanding, interpretation, text, methodology, method, globalization, integration, sign.

## **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Eshnazarov Murod Karimovich**

Termiz davlat universiteti Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi mutaxassisligi 1-bosqich doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada germenevtika tushunchasi mamuni, mohiyati, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiya faoliyatga tayyorlashda germenevtik yondashuvning ahamiyati, matnni tushunish va uni talqin, ta'lim va tarbiyada germenevtikaning o'rni va ahamiyati, pedagogik faoliyat jarayonida germenevtikaning namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari haqida so'z yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb, germenevtika, tushunish, talqin, matn, metodologiya, usul, globallashuv, integratsiya, belgi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N59>

Bugungi kunda jahonda intellektual salohiyatlari, kasbiy yetuk hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Juhon ta'lim tizimida germenevtik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik mahoratini oshirish, intellektual ijodiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoxda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi davlat dasturida "...Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавије ehtiyojlariga mos yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" [1; 3-b.] kabi ustuvor vazifa va yo'nalishlar belgilangan.

Mamlakatimizda kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifati hamda malakasini uzlusiz oshirish bo'yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida kasbiy faoliyatga tayyorlash yuzasidan bir qator o'ziga

xos ishlar amalga oshirildi. Bu borada kasbiy faoliyatni shakllantirishning mazmunli tizimini yaratish, matnni tushunish va sharhlash ko'nikmalarini rivojlantirish asosida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mezon va parametrlarini aniqlashtirishning prognostik modellarini ishlab chiqildi.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligigi bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'rzasida "Biz ta'litarbiya tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [2; 2-b.] -deb ta'kidladi.

Ta'lif va tarbiya tizimini rivojlantirishda ta'lif muassasalarida ijodiy yondashuvdan foydalanish, ijodkorlikni rivojlantirishning didaktik ta'minotini yaratish, pedagogik yondashuvning talablarini inobatga olgan holda kasbiy pedagogik faoliyatni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muhum ahamiyat kasb etmoqda.

Bunda esa bo'lajak o'qituvchilarni germenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish imkoniyatini kengaytirdi. Xususan, bugungi ilmiy-texnika inqilobi davrida tushunmaslik muammoi keng ahamiyat kasb etdi. Tushunish kerak bo'lgan material hajmi ortdi, binobarin pedagogik faoliyatda matnning tushunish zarur bo'lgan qirralari ko'paydi. Ta'lif va tarbiya mazmunini yanada rivojlantishda germenevtik yondashuvning nazariy metodologik asoslarini shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan integratsion tizimning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyati muhum ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz farovon, avlodlari barkamol yurtning kelajagi fan va ta'lif asosida shakllanuvchi tafakkur tarzi bilan uzviy bog'liq. "Hozirgi zamon pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan biri – germenevtikaning metodologik jihatlarini tahlil qilish globallashuv, axborotlashuv va integratsiya jarayoni ketayotgan XXI asrda voqe va hodisalarining ma'no-mazmunini to'g'ri tushunish imkonini beradi. Aksariyat pedagogik va psixologik manbalarda matnni talqin qilish nazariyasi sifatida e'tirof etiladigan germenevtika, tom ma'noda juda keng doirada qo'llaniluvchi sohalararo ta'limotdir" [10;5-b.]. Chunki, ma'noni talqin qilish, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharhlash kabi hodisalar boshqa sohalar kabi zamonaviy pedagogika fanlarining ham asosini tashkil qiladi.

Ta'lif-tarbiya jarayonida butun borlidagi narsa-hodisalar mohiyatini tushunish va ularni yosh avlodga tushuntirish bo'lajak pedagoglar oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekan, germenevtik tadqiqotlar mohiyatini o'rganish ta'lif va tarbiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Germenevtik yondashuv asosida ijtimoiy-siyosiy hodisalar mazmunini talqin qilish, ular mohiyatini tushunish mamlakatimiz tarixi, milliy merosi, tafakkur uslubi va dunyoqarashidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil etish va shu asosda ularga mustaqil munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Global o'zgarishlar, axborot oqimi ko'lami oshayotgan bugungi kunda, milliy qadriyatlar mazmunini tushunish bilan birga, o'zga madaniyatlarni ham anglash davr talabidir.

Germenevtika ma'no va mazmunni tushuntiruvchi xususiyati bilan milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi. Germenevtik yondashuvning pedagogik faoliyat jarayoniga tadbiq etilishi shaxs va jamiyat munosabatlarini barqaror rivojlanishida o'zining amaliy natijasini berishi shubhasidir. Aksariyat manbalarda matnni talqin qilish nazariyasi sifatida e'tirof etiladigan germenevtika, pedagogik sohadagi juda keng doirada qo'llaniluvchi ta'limotdir. Chunki, ma'noni talqin qilish, tushunish,

tushuntirish, izohlash, sharhlash kabi hodisalar ta'lim-tarbiya tizimining asosini tashkil qiladi.

Narsa-hodisalar mohiyatini tushunish va tushuntirish bo'lajak pedagoglar oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekan, germenevtik tadqiqotlar mohiyatini o'rganish ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi."Bo'lajak mutaxassislarning germenevtik metodologiya asosida ijtimoiy-siyosiy hodisalar mazmunini talqin qilish, ular mohiyatini tushunish mustaqil bo'lganiga ko'p bo'lmanган мамалакатимиз тарихи, милли мероси, тафаккур услуби ва дунyoqarashidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil etish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishi yosh avlodda mustaqil munosabatni shakllantirish imkonini beradi" .. [6; 46-97 b.]. Global o'zgarishlar, axborot oqimi ko'lami oshayotgan bir paytda, milliy qadriyatlar mazmunini tushunish bilan birga, o'zga madaniyatlarni ham anglash davr talabidir."Bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi".[4;126-b.]. Shunday ekan, germenevtikaning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga tadbiq etilishi shaxs va jamiyat munosabatlarini barqaror rivojlanishida o'zining amaliy natijasini berishi shubhasidir. Shuningdek, O'zbekiston tarixini o'tgan asrlardagi siyosiy mutelik ta'sirida noxolis yoritilishi ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi an'analar uzviyligining buzilishiga olib keldi: tarixiy voqealar, madaniy yutuq vayangiliklar cheklov va qoliplar ostida qoldi. Eng fojealisi, bu holat kishilar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yozma tarixiy-ilmiy meros, badiiy ijod namunalari (san'at asarlari, badiiy adabiyot, me'moriy obidalar vahokazo) mazmunini tushunish va bu qadriyatlarni davom ettirishga e'tiborsusaydi. Shuning uchun ham tarix, xususan, adabiyot va san'at sohasidagi milliy merosni germenevtik metodologiya orqali o'rganish tarixiy ma'naviyat qimmatini oshirib, unga xolisona baho berish imkoniyatini yaratadi.

Ijtimoiy hayotning bugungi qiyofasi siyosiy, iqtisodiy, madaniy muammolarni hal qilishda pedagoglardan assotsiativ tafakkur talab qilmoqda. Dastlab "ruh haqidagi fanlar metodologiyasi" deya e'tirof etilgan germenevtik metodologiya bugun o'zining keng qamrovli (ya'ni, ham ratsional, ham irratsional (divinations)) xususiyati bilan o'ziga xos tafakkur tarzini shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan mutaxassislarning obrazli tafakkurni rivojlantirib, tanqidiy va tahliliy mulohaza qobiliyatini kuchaytirishda ramziy ifodalar genezisi, simvol va tasvirlar mazmunini germenevtik metodologiya asosida o'rganish muhim. Uzoq yillar mobaynida tushunish va tushuntirish san'ati sifatida e'tirof etib kelingan germenevtikani inson borlig'inining xarakterli xususiyati sifatida o'rganish muhim.

O'quvchilar ongida Vatanga muhabbat, milliy urf odat va milliy qadriyatlarimizga nisbatan yuksak hurmatni shakllantirishda hamda milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirishda germenevtik metodologiyadan foydalanish samarali natija beradi. Chunki, germenevtika bevosita insonning tushunish qobiliyatini yuksaltirishga qaratilgan ta'limotdir. Mazkur holat ta'lim va tarbiya jarayonida germenevtik uslub va vositalarning keng qo'llanilishi zarurligini ko'rsatadi.

Germenevtikaning fan sifatidagi mohiyati va asosini tushunish va izohlash muammolari tashkil etadi, bu esa, aslida, uni o'rganish, ayniqsa, pedagogik bilimlar sohasida zaruriyat va ahamiyatini belgilaydi.

“Germenevtika” yunoncha “hermeneukos” so‘zidan olingen bo‘lib, “tushuntiruvchi”, “talqin etuvchi” ma’nosini bildiradi. Atamaning o‘zi ham qadimgi yunon afsonalariga borib taqaladi. Rivoyatlarga ko‘ra, Olimp tog‘idagi “ma‘bud”larning amr-farmon va xabarlarini Germes odamlarga olib kelib, tushuntirib, talqin qilib berganmish... Vositachi “Germes” va “germenevtika” orasida talaffuzda ham, vazifadoshlikda ham o‘xshashlik bor” [10; 6-b.]. Ya’ni, Germesning ma’no va mazmunni tashuvchilik, yetkazib beruvchilik vazifasi germenevtikaning matn ma’nosini tushunish va tushuntirish san’ati ekanligi bilan bir xil. Ayrim manbalarda esa, germenevtika sharhlash va tushuntirish san’ati, ko‘p ma’noli belgi, ishoralarni, hamda Gomer va qadimgi mutafakkirlar asarlarini talqin qilish ta’limoti sifatida ham ta’riflanadi. Keyinchalik, germenevtik an’ana diniy ilm ahliga muqaddas (“Tavrot”, “Zabur”, “Injil” va “Qur’on”) kitobni sharhlash va tushuntirishda qadimiy yodgorliklarni tarjima qilishning haqiqiy san’ati (uslubi) sifatida xizmat qila boshlagan. Pedagogik faoliyatning asosini tashkil qiluvchi matnni mazmunini tushunish va yosh avlodga tushuntirish sifatida paydo bo‘lgan germenevtika bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida “talqin” “talqin qilish san’ati” sifatida muhum pedagogik yondashuv sifatida shakllandi.

Falsafa tarixi ensiklopediyasida “Germenevtika – keng ma’noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta’limot, tor ma’noda, filologiya, huquqshunoslik, ilohiyotshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o‘rganishda qo’llaniladigan metod va qoidalar to‘plami” [7; 9-b.], deb ta’kidlangan. Lekin germenevtikaning qamrovi yuqoridagi ta’rifdan keng. Chunki germenevtika shunchaki metod va qoidalar to‘plami emas, balki inson borlig‘ining alohida ontologik ahamiyatga ega bo‘lgan fenomenidir. Chunki germenevtika insonga tushunishva tushuntirish imkonini berish bilan borliqning (bor bo‘lish, mavjudlikning) muhim asosini tashkil qiladi. Zero, ma’noni tushunish va talqin qilish ta’lim-tarbiya mazmunining tayanch bo‘g‘inidir.

Kasbiy pedagogik faoliyatda germenevtikaning namoyon bo‘lishini quyidagi holatlarda kuzatish mumkin:

- tarjima (boshqa tildagi ijod mahsulini va tajriba ma’nosini o‘z tiliga o‘tkazish asosida o‘quvchiga yetkazish);
- rekonstruksiya (tub ma’noni topish, ma’noni markazlashtirish, matnning asl ma’nosini popish va uni yosh avlodga yetkazish );
- dialog (pedagog va o‘quvchining matn bilan muloqotga kirishi va yangi ma’noni yaratilishi )” [10; 10-b.].

Bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilganda ma’lumotlarni pedagog o‘z tilida mavjud (yoki o‘zi bilgan) so‘zlar bilan izohlaydi. Agar matndagi biror-bir so‘zni pedagog o‘z ona tilidagi aynan ifodasini topa olmasa (shunday so‘z mavjud bo‘lmasa), shu so‘zga ma’no jihatdan yaqinroq bo‘lgan so‘zni qo’llashga majbur bo‘ladi. Chunki bir millatning so‘z boyligi ikkinchi millat so‘z boyligi bilan bir xil emas va oqibatda tarjima jarayonida so‘zlar o‘zgarsada ma’nolarni saqlab qolish asosiy vazifa darajasiga chiqadi. Aksariyat holatlarda o‘qituchi salohiyatiga qarab matn mazmuni asl mazmundan sayozlashadi yoki uzoqlashadi. Lekin tarjima jarayonida shunday holatlar bo‘ladiki, matn tarjimasi birinchi manbadan ham chuqurroq, mazmunliroq chiqishi mumkin. Bu holat tarjimon (yoki sharhlovchi)ning yuksak mahorati, so‘z boyligi bilan bog‘liq. Bir tilning matn ma’nosini boshqa tilga tarjima qilishda pedagog, avvalo, ikki tilning so‘z boyligini chuqur bilishi, ma’nodosh so‘zlarning eng muvofiqini tanlay olishi kerak. Bundan tashqari, tarjima jarayonida ma’noni kuchaytiruvchi asosiy jihat

o'qituvchining matndagi narsa va hodisalar mohiyatini tushuna olishi, ularni ichki kechinmalar orqali his qila olish qobiliyatidir. Agar tarjimada shu jihat bo'lmasa, majoziy aytganda matnning "shira"si bo'lmasa, u hech qachon o'quvchiga tushunarli bo'lmaydi.

Germenevtika rivojidagi rekonstruksiya jarayoni ham haqiqiy ma'noni topishdagi muhim yondashuvlardan biridir. "Rekonstruksiya so'zi o'z ma'nosi bilan "qayta tiklash", ya'ni germenevtikada matnning bиринчи ma'nosini qaytadan "jonlantirish" uchun qo'llaniladi" [10;78-b.]. Bu yondashuv tarjima jarayonidan farqli o'laroq, nafaqat ikki va undan ortiq tillar ichida, balki bir til ichida ham qo'llaniladi. Germenevtik rekonstruksiya tarixga, ya'ni so'z (matn)ning yaratilishi bilan bog'liq holatga nisbatan amalga oshiriladi. Masalan, hozirgi kunda kundalik hayotimizda qo'llab kelayotgan biz uchun to'la tushunarli bo'lмаган so'z (termin, atama)larning vujudga kelishi muayyan sababga asoslanganligiga har doim ham e'tibor bermaymiz. Masalan, barchaga tanish bo'lgan "Chorsu" so'zini olaylik. Kundalik hayotimizda tez-tez qo'llaniladigan mazkur so'zni savdo markaziga nisbatan ishlatalamiz. Lekin ushbu so'zning kelib chiqishi o'rta asrlarda shahar markazidagi hududga bog'liq bo'lib, u yerdan to'rt tomonni ko'rish mumkin bo'lgan. "Fors tilida "chor" "to'rt", "su" "taraf" ma'nosini anglatadi". Kasbiy pedagogik faoliyatda bu kabi tarixiy atama, so'zlar ko'p uchraydi. Bundan kelib chiqadiki, qo'llanilayotgan har bir so'zning asl mazmunini bilishda shu so'z yaratilgandagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyat vashart-sharoitlarni e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

"Germenevtikada bu xronotop tushunchasi bilan bog'liq. Xronotop – yunoncha chronos (zamon, vaqt) va topos (makon, joy) so'zlarining birikuvidan xosil bo'lgan atama bo'lib, u badiiy, tarixiy va boshqa turdag'i matnning strukturasi, janr, syujet, obrazlarni uyg'un (yagona makon-zamon negizida) aks ettiruvchi universal ijodiy hodisadir" [10;26-b.] Matn va ma'noga nisbatan rekonstruksiyaning qo'llanilishi xronotop vositasida ob'ektni sababiy aloqadorlikda tushunishga, talqin qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

"Germenevtik dialog esa, o'qituvchi va o'quvchilarni matn bilan jonli muloqotga kirishishiga sabab bo'ladi" [11;147-b.]. Ya'ni pedagog va o'quvchilar matn bilan muloqotga kirishib, voqeа-hodisalar ishtiroychisiga aylanib boradi. Bu yerda nafaqat tushunish, balki his qilish ustun turadi. O'quvchi qahramonlar taqdiriga sherik bo'lib, ularning shodligidan quvonib, dard-alamidan iztirob cheka boshlaydi. Bu holat badiiy adabiyotni sevib mutoalaq qiladigan barcha o'quvchilar uchun muhum ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'zimizning eng sevimli badiiy asarimizni eslaylik. Asardagi qahramonlar, voqeа-hodisalarni xotirlaylik va o'ylabko'raylik: bu asar biz uchun nimasi bilan qadrli? Albatta, qahramonning taqdiri yoki iztiroblari biznikiga yaqin yoki o'xhash bo'lganligi uchun. Yoki hech bo'lмагана, u orzuimizdagi vaziyat qahramoni bo'lgani uchun. Masalan, o'zbek adabiyoti durdonasi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Kumushning o'limidan iztirob chekmagan, qismatiga achinmagano'quvchi topilmasa kerak. Lekin har bir yo'qotishning o'zgalar uchun ibratli xulosasi bor. Yozuvchi asarda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni tasvirlab, muhabbat va go'zallik timsoli bo'l mish sevimli qahramonini halok qiladi, biroq yovuzlik qilgan qahramonni asarda tugaljazolamaydi. Uning taqdirini o'quvchining hukmiga havola etib, eng kuchli nafrat va hayotning og'ir jazosi – sevganining nafrati duchor qiladi. Badiiy asarning qimmati ham aynan so'nggi xulosani o'quvchi ixtiyoriga tashlashdir, ya'ni o'quvchi asardagi voqealar dialektikasini tahlil qilib, oxirida o'zidan kelib chiqqan holda xulosa chiqaradi. Shunda asarning tarbiyaviy-ahamiyati ko'rinadi, ya'ni kimdir asarda keltirilgan yomonlikni hayotida takrorlamaslikka, yaxshi jihatlarni singdirishga harakat qiladi. Shu tarzda matn bilan muloqot yuzaga keladi.

Barcha pedagogik ta'limot, yo'nalish hamda qarashlar majmui ularda ilgari surilayotgan g'oyani haqiqatga yetishning asosiy va eng to'g'ri yo'li deb ta'kidlaydi. Shu ma'noda, germenevtika ham hayot mazmuni va haqiqatni bilishning eng maqsadga muvofiq shakli deb, muloqotni hisoblaydi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Germenevtika vakillarining fikriga ko'ra, pedagogikaning asosiy vazifasi bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayonining asl mohiyatini bilishni o'quvchi va matn o'rtasidagi muloqotdan qidirish kerak. Bir so'z bilan aytganda, har bir ijod asari aniq g'oya, aniq maqsad bilan yaratilib, mavhumlik – ramz va belgilar bilan niqoblanadi. Asarning qimmati esa mana shu mavhumlik darajasi, ya'ni ko'p ma'nolilik bilan bog'liq. O'quvchi dunyoqarashi, tafakkuri, hayot tarzini o'zgartira olgan asarni kuchli asar deya e'tirof etiladi. Bunday asarda o'quvchini matn bilan muloqotga kirisha oladigan jihatlarining ko'pligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, aynan muloqot jarayonida haqiqiy ma'no tushuniladi, hayotning mohiyati, yashashning mazmuni ikki tomon (matn va o'quvchi) muloqot chegarasining birlashishi bilan anglanadi.

**Xulosalar.** Umuman olganda, germenevtik yondashuvning maqsadi matndagi o'ziga xos niqoblangan haqiqat mazmunini ochishga yo'naltirilgan. Chunki, yuqorida aytilganidek, germenevtikaning tadqiqot ob'ekti – shaklan tugal, mazmunan tugallanmagan inson mehnati va ijodi mahsulidir. Faqat bir ma'noga, talqingga ega ilmiy matn (yoki ob'ekt) germenevtika uchun tadqiqot ob'ekti bo'la olmaydi.

Germenevtika yaxlit fan emas. Biroq u pedagogik fanlar metodologiyasi sifatida qamrovi jihatidan ko'plab sohalarda amal qilish xususiyatiga ega. Chunki u ayrim empirik yoki nazariy metodlar kabi faqat bir yo'nalish, bir qolipa tayanmaydi: zamon va makonga nisbatan germenevtika o'z tadqiqot ob'ektlarini ham, yondashuvlarini ham oson o'zgartiradi. Shu hususiyati bilan uni fanlararo metodologiya deyish maqsadga muvofiq.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan mutaxassis o'z kasbiy faoliyat jarayonida tushunish va tushuntirishga intiladi. Shu ma'noda inson borlig'i immanent tarzda germenevtikdir. Germenevtika bu - tushunish va tushuntirish san'ati. Bu shunday san'atki, u insonning yashashan'ansasi, hayotiy qadriyat va ideallari, dunyoqarashida aks etadi. Inson o'zi tushunganicha borliqda yashaydi va o'z imkoniyatiga ko'ra borliqni tushuntiradi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son. www.Lex.uz
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligigi bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'rzasidan. www Ziyonet.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-5847-son 08.10.2019. //www.lex.uz
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: - "O'zbekiston" - 2016. 59 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -B.126-127
6. Xaydarova O.Q. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. p.f.n. diss... Qarshi - 2004. B. 76-97.
7. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi. Uslubiy qo'llanma. -T.: Universitet, 2011.9-b
8. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. -Toshkent: Akademnashr, 2014.26-b
9. Allayarova S. Germenevtika. O'quv qo'llanma. T.; Universitet, 2017 y 4-78 b.
10. Бласс, Ф. Герменевтика и критика -М.: Книга по Требованию, 2011. 147 с.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 5 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).